



## **XALQ DEPUTATLARI QO‘QON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I**

2025-yil 15-oktabr VII-13-82-11-166-K/25 Qo‘qon shahar

### **“Qo‘qon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil III-chorakda shakllangan qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi “Qoraqolpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi KQ-5-V-sonli qaroriga muvofiq shahar mahalliy byudjetining 2025-yil III-chorak yakuni buyicha shakllangan qo‘shimcha manbalaridan foydalanish bo‘yicha Xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanishda faqatgina (favqulodda holatlar bundan mustasno) xalq deputatlari mahalliy Kengashlari qarorlari asosida yo‘naltirilishini ta‘minlash ko‘rsatib o‘tilganligi inobatga olinsin.
2. Shahar mahalliy byudjetining 2025-yil III-chorak yakuni bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘idan ilovaga muvofiq ajratilsin.
3. Mazkur qaror asosida mablag‘ ajratilayotgan byudjet tashkilotlari, byudjet buyurtmachilari va byudjet mablag‘i oluvchilar rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishini hamda moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni hamda mablag‘larni ishlatish yakuni bilan tegishli hisobotlarni shahar iqtisodiyot va

moliya hamda G'aznachilik xizmati bo'limlariga taqdim etilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Shahar Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sanginov)ga ajratilgan mablag'lar doirasida xarajatlar smetasiga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritish, shahar G'aznachilik xizmati bo'limi (O.Soliev)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur Kengash qarori bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining "Mahalliy byudjet, iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi hamda shahar hokimining birinchi o'rinbosari N.Xamedov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



USMONOV MARUF  
AZAMOVICH

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashining  
2025-yil 15-oktabrdagi  
VII-13-82-11-166-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Qo‘qon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil III-chorak yakuni bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘lari  
xisobidan ajratilgan mablag‘lar**

| <b>T/R</b> | <b>Mablag‘ ajratil<br/>adigan tashkilot<br/>nomi</b> | <b>Ajratilgan mablag‘lar maqsadi va yo‘nalishi</b>                                                                                                                                                                                                            | <b>Ajratilgan<br/>mablag‘ miqdori<br/>(ming so‘m)</b> |
|------------|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
|            | <b>Jami</b>                                          | <b>X</b>                                                                                                                                                                                                                                                      | <b>5 852 000.0</b>                                    |
| 1          | Shahar<br>Hokimligi                                  | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 martdagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi"dagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan Tashabbusli byudjet jamg‘armasiga 30 foiz mablag‘ | 1 800 000.0                                           |
| 2          | Shahar<br>Hokimligi                                  | Farg‘ona viloyati qo‘riqlash boshqarmasi Qo‘qon shahar qo‘riqlash bo‘limi tomonidan hokimlik binosida, 2025-yil 2-, 3-choraklar davomida ko‘rsatilgan qo‘riqlash xizmatidan bo‘lgan mavjud qarzdorlikni qisman bartaraf etish maqsadida                       | 302 000.0                                             |
| 3          | Shahar<br>Hokimligi                                  | Qo‘qon shahar hokimligining buyurtmanomasiga ko‘ra Respublika, viloyat va shahar xamda boshqa tadbirlarda transport (avtobus) xizmatidan foydalanganlik                                                                                                       | 200 000.0                                             |

|   |                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |             |
|---|-----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 4 | Mahallalar<br>uyushmasi<br>Qo‘qon shahar<br>bo‘limi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli va 2025-yil 3-yanvardagi “2025 yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-sonli qarorlariga asosan Qo‘qon shahrida mahalla fuqarolar yig‘lari xududida “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak” tashkil etish maqsadida, mahallalar xududini tunu-kun kuzatishda kuzatuv kameralarini o‘rnatish ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun                                                                                                              | 500 000.0   |
| 5 | Shahar<br>Obodonlashtirish<br>boshqarmasi           | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sonli Farmoniga asosan shahardagi bog‘lar, xiyobonlar va yo‘l chetidagi gulzorlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish maqsadida buta, daraxt ko‘chatlari, gul ko‘chatlari sotib olish xarajatlari uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | 2 550 000.0 |
| 6 | Shahar<br>Obodonlashtirish<br>boshqarmasi           | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tqazib borishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5841-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3991-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-iyuldagi “III- Xalqaro hunarmandchilik festivali” va unga uyg‘in xolda “II-Xalqaro kulolchilik forumi”ni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish hamda ushbu tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 124-sonli yig‘ilish bayoniga asosan Qo‘qon shahrida joriy yilning 19-21-sentyabr kunlari bo‘lib o‘tgan “III- Xalqaro hunarmandchilik festivali” doirasida o‘tkazilgan tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish xarajatlari uchun | 500 000.0   |